
QUYOSH FOTOELEKTRIK STANSIYALARI QURGAN SHAXSLARGA KOMPENSASIYA BERILADI

Energiya tejavchi qurilmalarni xarid qilish hamda ushbu maqsadlarga olingan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarining bir qismini qoplash uchun byudjet mablag'lari hisobidan kompensasiya ajratiladi.

Kompensasiya quyidagi xarajatlarning bir qismini qoplash uchun ajratiladi:

jismoniy shaxslarga quyosh fotoelektrik stansiyalari, quyosh suv isitkichlari, shuningdek, energiya samarador gaz-gorelkali qurilmalarni sotib olish xarajatlarining 30 foizi miqdorida, biroq:

□ quyosh fotoelektrik stansiyalari uchun - 3 million so'mdan;

□ quyosh suv isitkichlari uchun - 1,5 million so'mdan;

□ energiya samarador gaz-gorelkali qurilmalar uchun - 200 ming so'mdan oshmaydigan miqdorda;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari, energiya samarador gaz-gorelkali qurilmalar va qozonlar, shuningdek, energiya samarador boshqa uskunalarni xarid qilish uchun olingan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarining bir qismi qoplashga:

□ jismoniy shaxslarga - 500 million so'mdan oshmaydigan kreditlar bo'yicha - Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasidan oshgan qismida, biroq 8 foiz punktidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

□ yuridik shaxslarga - 5 milliard so'mdan oshmaydigan kreditlar bo'yicha - Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasidan oshgan qismida, biroq 5 foiz punktidan ko'p bo'lmagan miqdorda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-12-15 09:12:12